



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

ANDIJON VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-oktabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-oktabr)

69,8



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da

9 968,3




Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda

75,0




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- noyabr holatiga ko'ra)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-oktabr)



Jami yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(1-noyabr holatiga ko'ra)

63,6



2024- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.



56,4

Soni, birlikda



Soni, birlikda


Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-oktabr)


2024



2023




2022



2021



2020



49,1

2024- y.

66,3



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.




Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissi

(2024- yil yanvar-oktabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillarga aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yil hajmi va 2024- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan shakllantirilgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-oktabr)


Hudud	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Viloyat bo'yicha jami	33 065,8	100,0	113,1
shahar va tumanlar:			
Andijon sh.	7 470,6	22,6	114,1
Xonobod sh.	534,1	1,6	113,8
Oltinko'l	935,2	2,8	112,1
Andijon	1 338,2	4,0	112,7
Baliqchi	1 196,9	3,6	113,4
Bo'ston	340,0	1,0	113,2
Buloqboshi	667,2	2,0	113,3
Jalaquduq	863,0	2,6	113,9
Izboskan	1 002,3	3,0	113,1
Ulug'nor	305,3	0,9	112,2
Qo'rg'ontepa	1 083,7	3,3	112,4
Asaka	1 521,7	4,6	112,5
Marhamat	852,0	2,6	112,8
Shahrixon	1 171,7	3,5	113,0
Paxtaobod	832,0	2,5	113,3
Xo'jaobod	1 124,8	3,4	113,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-oktabr)



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,0** foizni, shu jumladan, **55,0** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-oktabr)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.


Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-oktabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	33 065,75	100,0	113,1
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 139,89	3,4	115,4
Moliyaviy xizmatlar	4 545,41	13,7	115,6
Transport xizmatlari	4 660,58	14,1	115,2
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	4 446,73	13,4	111,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	9 446,76	28,6	111,1
Savdo xizmatlari	7 400,21	22,4	113,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	575,05	1,7	109,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 202,83	3,6	112,4
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	558,26	1,7	115,1
Ijara xizmatlari	467,84	1,4	104,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	674,47	2,0	110,5
Shaxsiy xizmatlar	1 170,92	3,5	111,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	194,52	0,6	104,8
Boshqa xizmatlar	1 029,02	3,1	117,7

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-oktabr)



2024-yil yanvar-oktabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida (yasirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **28,6** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **98,9** %.

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2024- yil yanvar-oktabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **72,0 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Andijon viloyati	7 400,2	+13,2%
Andijon shahri	2 408,3	+12,4%
Xonobod shahri	137,2	+13,2%
Oltinko'l	376,2	+12,2%
Andijon	389,2	+12,3%
Baliqchi	292,0	+11,7%
Bo'ston	111,3	+13,6%
Buloqboshi	185,0	+11,9%
Jalaquduq	260,8	+13,1%
Izboskan	223,6	+11,1%
Ulug'nor	60,4	+9,4%
Qo'rg'ontepa	360,4	+11,4%
Asaka	465,1	+11,3%
Marhamat	226,2	+11,0%
Shahrixon	294,1	+11,6%
Paxtaobod	207,5	+13,0%
Xo'jaobod	276,0	+15,1%


¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi, % da


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)




Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-oktabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-oktabrida 83,3** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **29,8** foizni yoki **1 350,6** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-oktabr** oylariga nisbatan ushbu hududda yuqori o'sish sur'ati **116,8** foiz qayd etildi.

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr) ¹⁾



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **95,4** foiz.

Andijon shahrida transport xizmatlari hajmi **1 460,4** mlrd so'mni tashkil etib, mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **116,0** foizni tashkil etgan.

Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr)

Andijon viloyati	4 660,6	+14,2%
Andijon shahri	1 460,4	+16,0%
Xonobod shahri	179,4	+14,2%
Oltink'ol	150,9	+14,5%
Andijon	174,1	+14,8%
Baliqchi	372,3	+15,0%
Bo'ston	54,5	+15,1%
Buloqboshi	141,3	+15,3%
Jalaquduq	160,3	+15,4%
Izboskan	189,1	+15,2%
Ulug'nor	54,0	+14,5%
Qo'rg'ontepa	169,4	+14,8%
Asaka	251,0	+14,8%
Marhamat	174,3	+15,5%
Shahrixon	187,3	+15,2%
Paxtaobod	195,8	+14,6%
Xo'jaobod	238,2	+14,3%

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda




Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-oktabr) ¹⁾



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmi telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024-yilning yanvar-oktabr** oylaridagi ulushi **84,1 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024-yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-oktabr)




2024-yil yanvar-oktabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 202,8** mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,4 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm **Andijon** shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-oktabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **429,6** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **35,7** foizini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)

2024- yil yanvar-oktabr oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **558,3** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **1,7 %** ini tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-oktabr)

Andijon viloyati	558,3	115,1%
Andijon shahri	125,2	119,8%
Xonobod shahri	12,8	116,1%
Oltink'ol	9,9	115,8%
Andijon	16,9	116,3%
Baliqchi	15,1	114,0%
Bo'ston	6,1	115,1%
Buloqboshi	9,7	117,0%
Jalaquduq	20,6	117,5%
Izboskan	20,6	116,4%
Ulug'nor	7,0	115,3%
Qo'rg'ontepa	26,3	112,7%
Asaka	32,6	115,9%
Marhamat	21,4	115,7%
Shahrixon	24,4	116,5%
Paxtaobod	12,8	117,9%
Xo'jaobod	15,0	112,5%

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sish sur'ati, % da

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-oktabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **81,9** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-oktabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda


🏠 O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)




2024- yilning yanvar-oktabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **467,8** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **81,9** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-oktabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining **38,7** foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-oktabr)


Andijon viloyati.	674,5
Andijon shahri	153,8
Asaka	40,1
Andijon	37,0
Izboskan	34,6
Shahrixon	33,8
Marhamat	28,8
Qo'rg'ontepa	26,1
Jalaquduq	22,0
Paxtaobod	21,8
Baliqchi	20,8
Oltinko'l	20,5
Xo'jaobod	15,7
Buloqboshi	11,0
Xonobod shahri	10,7
Bo'ston	6,4
Ulug'nor	5,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-oktabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-oktabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-oktabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **194,5** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Andijon shahrining ulushi **32,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.



Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.